



INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BAHOLASH

Astanakulov Olim Tashtemirovich,

DSc, prof., O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi mudiri,

ORCID: 0000-0002-0536-1214

E-mail: astanakulov@gmail.com

Isomidinova Mohizarxon Gofurjon qizi,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0003-5201-8149

E-mail: ergashevamohizarxon@gmail.com

FACTORS AFFECTING INVESTMENT EFFICIENCY AND THEIR EVALUATION

Astanakulov Olim Tashtemirovich,

DSc, professor, Head of the Department of "Islamic

Economics and Finance, Pilgrimage Tourism"

International Islamic Academy of Uzbekistan,

ORCID: 0000-0002-0536-1214

E-mail: astanakulov@gmail.com

Isomidinova Mohizarxon Gofurjon qizi,

Master's student at the International Islamic Academy of Uzbekistan

ORCID: 0009-0003-5201-8149

E-mail: ergashevamohizarxon@gmail.com

JEL Classification: E2, E22

Annotatsiya. Maqola investitsiyalar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va ularni baholashga bag'ishlangan. Iqtisodiy beqarorlik, jadal texnologik rivojlanish va global raqobat sharoitida investitsiyalar samaradorligini to'g'ri baholash moliyaviy muvaffaqiyatga erishish va resurslarni optimal taqsimlash uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda omilli tahlildan foydalanildi, bu esa kiritilgan investitsiyalarning aylanma mablag'larga nisbatan samaradorligi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi va

ularning korxonalar faoliyatining umumiy samaradorligiga ta'siri kabi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini berdi. To'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish obyektlariga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati va ularning kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligiga ta'siri ham tahlil qilindi. Omilli tahlildan foydalanish nafaqat omillar ta'sirini baholash, balki ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash imkonini berdi.

Abstract. The article is devoted to studying and assessing the factors

influencing investment efficiency. In the context of economic instability, rapid technological development, and global competition, accurately evaluating investment efficiency is crucial for achieving financial success and optimizing resource allocation. Factor analysis was employed in the research, enabling the identification of key indicators such as the efficiency of investments relative to working capital, the share of investments in fixed assets, and their impact on the overall efficiency of enterprise operations. The importance of investments directed specifically at production facilities and their influence on a company's long-term sustainability was also analyzed. Using factor analysis allowed not only the assessment of the factors' impact but also the identification of relationships between them.

Kalit soʻzlar: *investitsiyalar, samaradorlik, omilli tahlil, aylanma mablagʻlar, asosiy fondlar, ishlab chiqarish quvvatlari, samaradorlikni baholash, investisiya siyosati, moliyaviy barqarorlik, rentabellik.*

Keywords: *investments, efficiency, factor analysis, working capital, fixed assets, production capacities, efficiency assessment, investment policy, financial stability, profitability.*

Kirish. Iqtisodiy beqarorlik, jadal texnologik taraqqiyot va shiddatli raqobat bilan tavsiflangan bugungi dinamik sharoitda investitsiya resurslarini samarali taqsimlash va boshqarishni taʼminlash ham biznes, ham davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega [5]. Iqtisodiy va siyosiy oʻzgarishlar, isteʼmolchilarning xohish-istaklarining oʻzgarishi va innovatsiyalarning tinimsiz oʻzgarish surʼati investitsiya qarorlari va ularning yakuniy samaradorligiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Investitsiya samaradorligiga taʼsir etuvchi omillar va ularni toʻgʻri

baholash usullarini ishlab chiqish riskni kamaytirish, daromadlarni optimallashtirish va uzoq muddatli moliyaviy muvaffaqiyatga erishish uchun muhimdir.

Iqtisodiyotning jadal raqamlashtirilishi va texnologik rivojlanish sharoitida investitsiya samaradorligiga taʼsir etuvchi omillarni tahlil qilish zarurati yanada kuchaymoqda. Aylanma kapital qoʻyilmalarining mablagʻlar samaradorligini oʻrganish ularning kompaniyaning umumiy rentabelligi va moliyaviy holati haqida tushuncha beradi. Bundan tashqari, asosiy kapitalga qoʻyilgan mablagʻlarning umumiy kapital tarkibidagi ulushini tahlil qilish kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini, uning texnologik imkoniyatlarini hamda qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlarni taqsimlash oʻrtasidagi muvozanatni yoritib beradi [6].

Toʻgʻridan toʻgʻri ishlab chiqarish jarayonlariga yoʻnaltirilgan investitsiyalarni baholash alohida ahamiyatga ega. Ushbu investitsiyalar samaradorligini baholash ularning ishlab chiqarish darajasiga, operatsion samaradorlikka va pirovard natijada rentabellikka taʼsirini har tomonlama tushunish imkonini beradi. Ushbu omillarning oʻzaro bogʻliqligini tan olish juda muhim, chunki ular birgalikda korxonaning umumiy investitsiya strategiyasining samaradorligini belgilaydi [8].

Material va metod. Investitsiyalar samaradorligi bir qator omillarga bogʻliq va turli usullar yordamida baholanadi. Investitsiya samaradorligi koʻpincha investitsiyalarni prognoz qilingan darajalar bilan taqqoslash yoʻli bilan oʻlchanadi, bunda ogʻishlar investitsiyalar samarasizligini koʻrsatadi. Anagnostopoulou (2024) investitsiyalarning kutilgan va amalga oshirilgan darajalari oʻrtasidagi farqlar investitsiya faoliyatining muhim koʻrsatkich

ekanligini ta'kidlaydi [1]. Chen va boshqalar (2021) turli modellar va ko'rsatkichlarni ko'rib chiqadilar, masalan, kapitalning rentabelligi ko'rsatkichi ham investitsiyalarning prognozida keng qo'llaniladi [3]. Tsai va boshqalar (2023) kapital xarajatlar va ilmiy-tadqiqot xarajatlarining umumiy aktivlarga nisbati kabi ko'rsatkichlar yordamida jismoniy va nomoddiy investitsiyalarning intensivligini o'lchash muhimligini ta'kidlaydi [2]. Ushbu usullar investitsiyalarni taqsimlash va korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan faoliyat samaradorligini baholash uchun miqdoriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiya samaradorligini aniqlashni bir necha turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos nuqtai nazarni aks ettiradi:

Tijorat hayotiyli: loyihada ishtirok etayotgan tijorat tuzilmalari nuqtai nazaridan baholanadi va uning bozor qiymatiga qo'shgan hissasini aks ettiradi. I.Xolidov, K.Milovidov va A.Soltaxanov (2021) loyihaning bozorga ta'sirini tushunishda tijorat samaradorligi muhimligini ta'kidlaydi [4].

Budjet samaradorligi: Samaradorlikning ushbu turi davlat budjeti nuqtayi nazaridan baholanadi va loyihaning budjet daromadlari va soliq tushumlariga ta'sirini hisobga oladi. I.Xolidov, K.Milovidov va A.Soltaxanov (2021) ta'kidlashicha, budjet samaradorligini baholash moliyaviy hissa va budjetga potensial yuklarni aniqlashga yordam beradi [4].

Ijtimoiy samaradorlik: Garchi tadqiqotlarda batafsil yoritilmagan bo'lsa-da, ijtimoiy samaradorlik odatda investitsiyaning kengroq ijtimoiy ta'sirini baholaydi va iqtisodiy foyda hamda ijtimoiy natijalar o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi.

Adabiyotda investitsiya

samaradorligini tushunish uchun bir nechta konseptual asoslar, jumladan, neoklassik, agentlik va boshqa nazariylar tahlil etilgan. Bularning har biri o'ziga xos afzalliklar va cheklovlarga ega bo'lgan o'ziga xos yondashuv va usullarni taklif qiladi. Gao va Yu (2020) keng qamrovli tahlilga erishish uchun tadqiqotga qarab tegishli konsepsiyani tanlash muhimligini ta'kidlaydi [3].

Ushbu tadqiqotlar investitsiya samaradorligining ko'p qirrali mohiyatini tushunish imkonini beradi va uni baholashda tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Har bir ishlash usuli va turi tadqiqotchilarga investitsiyalar umumiy iqtisodiy va tashkiliy ko'rsatkichlarga qanday hissa qo'shishi yoki kamaytirishi mumkinligining turli jihatlarini qo'lga kiritish imkonini beruvchi o'ziga xos istiqbolni taqdim etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi tahlilning zanjirli bog'lanish usulidan foydalangan holda investitsiya samaradorligiga turli omillarning ta'sirini baholashdir. Tahlil qilish uchun investitsiyalar samaradorligini aks ettiruvchi quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tanlab olindi: aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya samaradorligi; aylanma mablag'larga qo'yilgan investitsiyaning asosiy vositalardagi hissasi; asosiy vositalarga qo'yilgan investitsiyalarning barcha qoyilgan investitsiyalardagi ulushi.

Tadqiqot metodologiyasi omillar tahlilini o'z ichiga oladi, bu bizga ushbu omillarning investitsiyalarning umumiy samaradorligiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Omilli tahlil har bir ko'rsatkichning ta'sirini, shuningdek ularning munosabatlarini ajratishga yordam beradi, bu esa eng muhim omillarni aniqlashga yordam beradi [8].

Tadqiqotning to'liqligi va aniqligini ta'minlash uchun "O'zbekneftgaz" AJning ma'lumotlar manbalaridan foydalanildi.

Ma'lumotlar investitsiya samaradorligiga asosiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash uchun ma'lumotlarni tahlil qilish dasturi yordamida qayta ishlandi.

Tadqiqot natijalari turli aktivlarga investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiya strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi va aniqlangan omillar asosida investitsiya siyosatini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Munozara. Iqtisodiy tahlilda o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkichning o'zgarishi va uni yuzaga keltirgan omillar tahlil qilinadi. Bu usul yordamida natijaviy ko'rsatkichga qaysi omillar ta'sir qilganligi va har bir omilning o'zgarishi aniq hisob-kitob qilinadi. Bunday zanjirli bog'lanish usuli odatda keng qo'llaniladi. Ushbu usulda tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlar o'zaro qat'iy funksional bog'liqlikka ega bo'lishi kerak, ya'ni natijaviy ko'rsatkich bir yoki bir necha ko'rsatkich ta'siri natijasida yuzaga chiqadi. Har bir omilning o'zgarishi ketma-ketlikda tahlil qilinadi: bir omilning o'zgarishi hisobga olinib, qolgan omillar o'zgarimas deb qabul qilinadi. Keyingi bosqichlarda boshqa omillar ham xuddi shunday tartibda o'rganiladi. Har bir omilning natijaga ta'siri o'z o'zgarishi bilan ko'rsatiladi, va keyingi omillar ularning o'zgarishiga qarab o'rganiladi. Zanjirli bog'lanish usulining yakuniy bosqichida oldin hisoblangan omillar o'z ta'sirini ko'rsatib bo'lgan deb qaraladi, va qolgan omillar haqiqiy holatda o'zgargan natija bilan hisobga olinadi.

Bevosita ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiyaning samaradorligi (Q_c) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini (Q) investitsiyaning umumiy qiymatiga (U) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Q_c = \frac{Q}{U};$$

Ushbu ko'rsatkichning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi.

Q_c – bevosita ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiya

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi

U – investitsiyaning umumiy qiymati

Z – aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya

W – aylanma mablag'larga qoyilgan investitsiyaning asosiy vositalarga ajratilgan qismi

S – asosiy vositalarga qoyilgan investitsiyalarning barcha qoyilgan investitsiyalardagi ulushi

$$Q_c = Z * W * S;$$

Ushbu formulaga asosan ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiyaning samaradorligi o'zgarishiga (Q_c) alohida omillar ta'sirini hisoblash uchun quyidagi amallarni bajarish lozim bo'ladi, ya'ni birinchi navbatda ularning farqi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Q_c = (Z_h * W_h * S_h) - (Z_r * W_r * S_r);$$

Ushbu formulaga asosan ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiyaning samaradorligi o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini (ΔQ_{cz}) hisoblash uchun natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinadi ($Z_h * W_r * S_r$) va undan natijaning rejadagi miqdori ($Z_r * W_r * S_r$) ayriladi. Bu quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Q_{cz} = (Z_h * W_r * S_r) - (Z_r * W_r * S_r);$$

Natijaning, ya'ni ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiyaning samaradorligi o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'sirini (ΔQ_{cw}) hisoblash uchun natijani ikkinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta

hisoblab olinadi ($Z_h * W_h * S_r$) va undan natijaning birinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori ($Z_h * W_r * S_r$) ayriladi. Bunda quyidagicha formuladan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$\Delta Q_{cw} = (Z_h * W_h * S_r) - (Z_h * W_r * S_r) ;$$

Natija ko'rsatkichi bo'lgan ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiyaning samaradorligi o'zgarishiga uchinchi omilning ta'sirini (ΔQ_{cs}) hisoblash uchun natijani uchinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinadi ($Z_h * W_h * S_h$) va undan natijaning ikkinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori ($Z_h * W_h *$

S_r) ayriladi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_{cs} = (Z_h * W_h * S_h) - (Z_h * W_h * S_r) ;$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng bo'ladi. Buni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta Q_c = \Delta Q_{cz} \pm \Delta Q_{cw} \pm \Delta Q_{cs} .$$

Bunga amaliy ma'lumotlarni qo'llab bemalol tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini abaul qilish mumkin (1-jadval).

1- jadval

“O‘zbekneftgaz” AJda investitsiya samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili [9, Ошибка! Источник ссылки не найден.]

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil (reja) 2021 | Hisobot yili 2022 | Farqi +/- | O'sish surati % |
|-----|---|------------------------|-------------------|-----------|-----------------|
| 1. | Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi | 12142 | 13305 | 1163 | 109,6 |
| 2. | Investitsiyaning umumiy qiymati | 11661 | 12136 | 475 | 104,1 |
| 3. | Bevosita ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiya samaradorligi % | 1,04 | 1,10 | 0,06 | 105,3 |
| 4. | Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya | 1712 | 2806 | 1094 | 163,9 |
| 5. | Asosiy vositalarga ajratilgan investitsiya | 9131 | 9615 | 484 | 105,3 |
| 6. | Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya samaradorligi | 7,09 | 4,74 | -2,35 | 66,9 |
| 7. | Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiyaning asosiy vositalardagi ulushi | 0,19 | 0,29 | 0,10 | 155,7 |
| 8. | Asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning barcha investitsiyalardagi ulushi | 0,78 | 0,79 | 0,01 | 101,2 |

1-jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi joriy yilda 12142 million so'mdan 13305 million so'mga oshgan, o'sish sur'ati 9,58% ga ko'tarilgan va 109,58 % ko'rsatkichga erishilgan. Investitsiyaning umumiy qiymati

esa 11661 million so'm va 12136 million so'mga oshishi natijasida 475 million so'm ijobiy farqni tashkil etgan, ya'ni joriy yilda o'sish sur'ati 104,1 % bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan +4,1 % natijaga erishilgan. Shu bilan bir qatorda aylanma mablag'larga

kiritilgan investitsiya samaradorligi va asosiy vositalarga ajratilgan investitsiya samaradorligida ham joriy yilda ijobiy o'zgarishlar bo'lganini ko'rish mumkin.

Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya o'tgan yilga 1712 million so'mga nisbatan 1094 million so'mga oshgan va 2806 million so'mni tashkil qilib, joriy yil o'sish sur'ati 164% ga oshgan. Asosiy vositaga kiritilgan investitsiya miqdori 2021-yilga nisbatan +5,3 %ga o'sgan, ya'ni 105,3 % qayd etilgan. Hisobot yiliga nisbatan 484 mln so'mga ko'payib, 9131 mln so'mdan 9615 mln so'mga yetgan. Aylanma mablag'larga qo'yilgan investitsiyaning asosiy vositalardagi ulushi o'tgan yil bilan taqqoslaganda 0,19 dan 0,29 ga ko'paygan, o'sish sur'ati esa 155,67 % yetgan.

Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya samaradorligi o'tgan yilga 7,09 % ga nisbatan -2,35 ga tushgan va 4,74 tashkil qilib, joriy yil o'sish sur'ati 33 % ga pastlagan, hamda 67% ni tashkil etgan.

Bevosita ishlab chiqarishga qo'yilgan

investitsiya samaradorligida joriy yilgi natijalar o'tgan yilga nisbatan ijobiy 105,3% ni tashkil etgan. Ya'ni bevosita ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiya samaradorligi 2021-yilda 1,04 ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 1,1ga yetgan.

Asosiy vositalarga qo'yilgan investitsiyalarning barcha kiritilgan investitsiyalardagi hissasi ham hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 0,15 dan 0,23 ga oshib, o'sish sur'ati 157,5% ni tashkil etgan.

Zanjirli bog'lanish usulida o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir etgan omillarni tartib asosida aniqlashtiriladi va bu omillar quyidagilardan iborat:

1. Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya samaradorligi;

2. Aylanma mablag'larga qo'yilgan investitsiyaning asosiy vositalardagi ulushi;

3. Asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning barcha investitsiyalardagi ulushi omillarining rivojlanishi hisoblab chiqilgan.

2- jadval

Investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini hisoblash usullari [9,

Ошибка! Источник ссылки не найден.]

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil (reja) | Hisobot yili | 1-omil | 2-omil | 3-omil |
|-----|---|-------------------|--------------|--------|--------|--------|
| 1. | Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya samaradorligi (Z) | 7,09 | 4,74 | 4,74 | 4,74 | 4,74 |
| 2. | Aylanma mablag'larga qo'yilgan investitsiyaning asosiy vositalardagi hissasi (W) | 0,19 | 0,29 | 0,19 | 0,29 | 0,29 |
| 3. | Asosiy vositalarga qo'yilgan investitsiyalarning barcha qoyilgan investitsiyalardagi ulushi (S) | 0,78 | 0,79 | 0,78 | 0,78 | 0,79 |
| 4. | Bevosita ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiya samaradorligi mln so'm (Qc) | 1,0507 | 1,0859 | 0,70 | 1,07 | 1,09 |

O'tgan yilga nisbatan investitsiya samaradorligi 7,09% dan 4,74% gacha kamaygan. Bu, ehtimol, iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuvi yoki

investitsiyalarning samaradorligi pasayishi bilan bog'liq. Asosiy vositalarga qo'yilgan investitsiyalarning hissasi 0,19% dan 0,29% gacha oshganini ko'rsatadi, bu esa kelajakda

o'sish imkoniyatlarini bildiradi. Biroq, asosiy vositalardagi investitsiyalarning ulushi 0,78% dan 0,79% gacha oshgan bo'lsa-da, bu o'zgarishlar ahamiyatsizdir. Bevosita ishlab chiqarishga qo'yilgan investitsiya samaradorligi 1,04% dan 1,10% gacha o'sgan, bu esa ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Umuman olganda, ko'rsatkichlar o'rtasida o'zgarishlar mavjud, ammo umumiy investitsiya samaradorligi pasayib bormoqda, bu esa kelajakda yanada diqqat bilan tahlil qilishni talab etadi.

2-jadvalda har bir omilning rivojlanishi hisoblab chiqilib, ularning bevosita ishlab chiqarishga kiritilgan investitsiya samaradorligiga qanday ta'sir etishi ko'rsatilgan.

Bevosita ishlab chiqarishga kiritilgan investitsiya samaradorligini aniqlash uchun hisobot yilidagi ko'rsatkichlardan o'tgan yilgi ko'rsatkichlar ayrildi.

$$\Delta Qc = (Z_h * W_h * S_h) - (Z_r * W_r * S_r);$$

$$(4,74 * 0,29 * 0,79) - (7,09 * 0,19 * 0,78) = 0.0352$$

Har bir omilning ta'sirini aniqlash uchun esa quyidagi formulalardan foydalaniladi.

Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya samaradorligi quyida formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta Qcz = (Z_h * W_r * S_r) - (Z_r * W_r * S_r);$$

$$(4,74 * 0,19 * 0,78) - (7,09 * 0,19 * 0,78) = -0,3482$$

Ko'rinib turibdiki, birinchi omilning 2,35 ga (4,74-7,09) ga kamayishi investitsiya samaradorligining 0,3482 mln. so'mga (1.0859-1.0507) kamayishiga sabab bo'lgan.

Aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiyaning asosiy vositalardagi hissasi hisoblanganda, ushu omil o'zgarishi

ijobiylikni aniqlandi, ya'ni ikkinchi omilning, 0,1 ga (0,29-0,19) ko'payishi, investitsiya samaradorligining 0,3697 mln. so'mga (1.0722-0.7025) ko'payishiga sabab bo'lgan.

$$\Delta Qcw = (Z_h * W_h * S_r) - (Z_h * W_r * S_r);$$

$$(4,74 * 0,29 * 0,78) - (4,74 * 0,19 * 0,78) = 0.3697$$

Asosiy vositalarga qo'yilgan investitsiyalarning barcha qo'yilgan investitsiyalardagi ulushining o'zgarishi ham ijobiylikni aniqlandi, ya'ni uchinchi omilning 0,01 ga (0,79-0,078) o'sishi, natijaning 0,0137 mln. so'mga (1,0859-1,072) o'sishiga sabab bo'lgan.

$$\Delta Qcs = (Z_h * W_h * S_h) - (Z_h * W_h * S_r);$$

$$(4,74 * 0,29 * 0,79) - (4,74 * 0,29 * 0,78) = 0.0137$$

Barcha omillar ta'siri investitsiya samaradorligi o'zgarishining umumiy farqiga teng bo'ladi. Bu quyidagicha aniqlandi:

$$\Delta Qc = \Delta Qcz \pm \Delta Qcw \pm \Delta Qcs; \\ 0.0352 = -0,3482 + 0.3697 + 0.0137$$

Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarishga kiritilgan investitsiyaning samaradorligi o'zgarishiga aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiyaning asosiy vositalardagi hissasi va asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning barcha investitsiyalardagi hissasi omillarining o'zgarishi ijobiy, faqatgina aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiya samaradorligi omili salbiy dinamikaga ega. Ikkila omilning ijobiy o'zgarishi aniqlangan omillarni yanada yaxshilash, hamda birinchi omil bo'yicha kamchiliklarni bartaraf etish uchun choratadbirlarni ishlab chiqarishni taqozo qiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, ularni baholash

usullari va bu omillar o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi nafaqat korxonalar rentabelligi, balki uning uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida zanjirli bog'lanish usuli yordamida asosiy va aylanma kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini batafsil o'rganib, bevosita ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiyalar samaradorligi uchta omilga bog'liq deb topdik: aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiyalar samaradorligi; aylanma mablag'larga kiritilgan investitsiyalarning asosiy vositalardagi ulushi; asosiy vositalarga kiritilgan

investitsiyalarning umumiy investitsiyalardagi ulushi.

Xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirishda kritik omillar va ularning baholanishi iqtisodiy tahlilning muhim jihatlaridan biridir. Tahlil natijalari va o'zgarishlarni aniqlash uchun omillarning dinamikasi haqida to'liq ma'lumot olish zarur. Zanjirli bog'lanish usuli samaradorlik tahlilida ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq holda o'rganishni talab qiladi, bu esa ularning funksional bog'liqligini ta'minlaydi. Natijaviy ko'rsatkichlarning o'zgarishini kuzatishda har bir omilning shartli o'zgarishini saqlab qolgan holda boshqa omillarni o'zgarimas deb hisoblash orqali hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anagnostopoulou S. (2024). Accruals quality and efficient investing: Cross-country evidence. *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 57. <https://doi.org/10.1016/j.intaccudtax.2024.100654>
2. Cai G., Hsu P., Xu X., Zhou T., Zhu Y. (2023). The bright and dark sides of minority shareholder protection: Evidence from the separate vote counts disclosure rule in China. *Pacific-Basin Finance Journal*, 82. <https://doi.org/10.1016/j.pacfin.2023.102185>
3. Chen S., Gao Q., Peng Q., Yang H. (2021). Government-decentralized power: Measurement and effects. *Emerging Markets Review*, 48. <https://doi.org/10.1016/j.ememar.2020.100769>
4. Khalidov I., Milovidov K., Soltakhanov A. (2021). Decommissioning of oil and gas assets: industrial and environmental security management, international experience and Russian practice. *Heliyon*, 7. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2021.e07646>
5. Sheina, E. G., Astanakulov, O. T., Zakirova, E. R., & Tsoi, G. G. (2019). The relationship of financial planning and budgeting in turnover-oriented enterprises. *Academy of Entrepreneurship Journal*, 25(4), 1-9.
6. Астанакулов, О. (2022). Корхоналар инвестиция фаолиятининг иқтисодий таҳлили ҳамда унинг мазмуни. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(6), 88-95.
7. Батоева, Э. В. (2020). Факторы, оказывающие влияние на эффективность инвестиций в объекты коммерческой недвижимости. *Экономика строительства*, (3 (63)), 50-61.
8. Штеле, Е. А., Гусева, М. А., & Руди, Л. А. (2016). Методика оценки эффективности инвестиционных проектов с учетом рисков. *Вестник Сибирской государственной автомобильно-дорожной академии*, (6 (52)), 135-140.



9. <https://openinfo.uz/en/reports/978/>